

“Xarajatlar – ishlab chiqarish” jadvalini tuzish bo'yicha uslubiy nizom

“Xarajatlar – ishlab chiqarish” simmetrik jadvalini tuzish bo'yicha ushbu uslubiy nizom (keyingi o'rinlarda – Uslubiy nizom) “Milliy hisoblar tizimi – 2008” (MHT – 2008) xalqaro standarti va ““Xarajatlar – ishlab chiqarish” jadvalini tuzish va uni tahlil qilish qo'llanmasi”, shuningdek, Statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli (Generic Statistical Business Process Model-GSBPM) talablari asosida ishlab chiqilgan hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi mutaxassislari tomonidan “Xarajatlar – ishlab chiqarish” jadvalini tuzishda foydalanish uchun mo'ljallangan.

Uslubiy nizomda tarmoq klassifikatsiyasi sifatida O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichidan (keyingi o'rinlarda – IFUT-2) va mahsulotlar tasniflagichi sifatida Mahsulotlarning statistik tasniflagichidan (keyingi o'rinlarda – MST) foydalangan holda “Xarajatlar – ishlab chiqarish” jadvalini tuzish bo'yicha ishlarni amalga oshirish nazarda tutilgan.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Uslubiy nizomda quyidagi asosiy tushunchalar va ularning ta'riflaridan foydalaniladi hamda u GSBPMning qayta ishlash bosqichi doirasida ma'lumotlarni integratsiyalash, tasniflash va kodlashtirish, yangi ko'rsatkichlarni shakllantirish, umumlashtirish hamda qayta ishlashni yakunlash jarayonlarini o'z ichiga oladi:

muassasa bu korxona yoki korxonaning bir qismi bo'lib, u bir yerda joylashgan va bir turdagi ishlab chiqarish faoliyati bilan band bo'ladi yoki asosiy faoliyat turiga qo'shilgan qiymatning ustun hissasi to'g'ri keladi;

tarmoq bu bir xil yoki shunga o'xshash faoliyat turlari bilan shug'ullanadigan muassasalar guruhini o'zida aks ettiradi;

asosiy faoliyat ishlab chiqarish birligining shunday faoliyatini tavsiflaydiki, uning jarayonida yaratilgan qo'shilgan qiymat miqdori aynan o'sha birlikning shunga o'xshash boshqa har qanday faoliyatlari natijasida yaratilgan qo'shilgan qiymatlari miqdoridan katta bo'ladi;

ikkilamchi faoliyat – asosiy faoliyatning ishlab chiqarishi kabi ushbu ishlab chiqarish birligidan tashqariga mahsulot yetkazib beradigan, asosiy faoliyat bilan birgalikda, ishlab chiqarish birligining ichida amalga oshiriladigan faoliyat;

savdo ustamasi tovar qiymatini savdo faoliyati orqali uni sotish jarayonida o'zgarishi miqdorini o'zida aks ettiradi, ya'ni tovarni sotish va sotib olish narxlari orasidagi farqdir;

transport ustamasi tovarlarning bozor narxiga kiritiladigan va sotib oluvchilar tomonidan to'lanadigan transport xizmatlari qiymatini o'zida aks ettiradi;

mahsulotlarga soliqlar – rezidentlar tomonidan ishlab chiqariladigan, sotiladigan yoki import qilinadigan tovarlar va xizmatlarning miqdori yoki qiymatiga mutanosib tarzda tovar yoki xizmatlarning bir birligi uchun solinadigan soliqlar. Ularga qo'shilgan qiymat solig'i, aksizlar, eksport va import uchun soliqlar va boshqalar kiradi;

mahsulotlarga subsidiyalar – davlat budjetidan tovarlar yoki xizmatlarning bir birligiga, ya'ni rezidentlar tomonidan ishlab chiqariladigan, sotiladigan yoki import qilinadigan tovarlar va xizmatlarning miqdori yoki qiymatiga mutanosib tarzda to'lanadigan mablag'lar (subsidiyalar).

2-bob. Asosiy narxlardagi ishlatilish jadvalini hisoblash tartibi

2. “Xarajatlar – ishlab chiqarish” simmetrik jadvalini tuzishning boshlang'ich asosi bo'lib, asosiy narxlardagi resurslar va ishlatilish jadvallari hisoblanadi.

3. “Xarajatlar – ishlab chiqarish” simmetrik jadvali iqtisodiyotning texnik tarkibi asosida ishlab chiqarish sohasidagi munosabatlarni aniqlash imkonini beradi. Buning uchun IFUT-2dagi bir guruhda tasniflangan korxonalarning bir xilligi ta'minlanishi shart bo'lganidek, texnik munosabatlarga soliq siyosatini va operatsion xarajatlarning ta'sir etish natijasini chegirib tashlash imkonini beruvchi ishlab chiqarilgan va ishlatilgan tovarlar va xizmatlar qiymatini baholash tizimining ham bir xilligini ta'minlash kerak bo'ladi.

4. Sotib olish narxlaridagi ishlatilish jadvallarining har bir elementi quyidagi komponentlardan tashkil topadi: asosiy narxlardagi mahalliy tovarlar va xizmatlar, import qilingan tovarlar va xizmatlar, savdo ustamalari, transport ustamalari, mahsulotlarga soliqlar va mahsulotlarga subsidiyalar.

5. Asosiy narxlardagi ishlatilish jadvalini tuzish uchun sotib olish narxlarini shakllantiruvchi komponentlar aks ettirilgan matritsalar tizimi tuziladi.

6. Asosiy narxlardagi ishlatilish jadvalining I va II kvadrantlari doirasida quyidagi qatorlar ajratib ko'rsatiladi:

- a) ishlatilgan tovarlar uchun savdo ustamasi;
- b) ishlatilgan tovarlar uchun transport ustamasi;
- c) ishlatilgan tovarlar va xizmatlar uchun mahsulotlarga sof soliqlar.

Asosiy narxlardagi ishlatilish jadvalining III kvadranti o'zgarishsiz qoladi va sotib olish narxlaridagi ishlatilish jadvalining xuddi shunday ma'lumotlariga to'liq mos keladi.

7. Asosiy narxlardagi ishlatilish jadvali sotib olish narxlaridagi ishlatilish jadvalidan import tovarlar va xizmatlar ishlatilish jadvallari, savdo ustamasi, transport ustamasi, mahsulotlarga soliqlar matritsalarini ayirish va mahsulotlarga subsidiyalar matritsasini qo'shish yo'li bilan hisoblanadi.

8. Ustamalar, mahsulotlarga soliqlar matritsalarini resurslar jadvalidan olingan ustamalar, mahsulotlarga soliqlar vektorlarini sotib olish narxlaridagi ishlatilish jadvali tarkibi bo'yicha taqsimlab hisoblanadi:

$$\sum x_{ij} = X_i,$$

bu yerda, i – mahsulot

j – tarmoq

x_{ij} – transport, savdo ustamalari, mahsulotlarga sof soliqlar, import tovarlar va xizmatlar ishlatilish matritsalarini elementlari;

X_i – resurslar jadvalidagi “ i ” mahsulotda transport, savdo ustamalari, mahsulotlarga sof soliqlar, import tovarlar va xizmatlar ishlatilishining miqdori.

1-§. Savdo ustamalari matritsasi

9. Savdo ustamalari matritsasi har bir elementi tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqaruvchilar yoki ularning yakuniy iste'molchilar tomonidan iste'mol qilingan mahsulotlar qiymatidagi savdo marjasini ko'rsatuvchi jadvalni o'zida aks ettiradi.

10. Savdo ustamalari matritsasi ulgurji va chakana savdoda avtomobil va motosikllarning ulgurji va chakana savdosi uchun alohida hisoblanadi.

11. Savdo ustamalarini tarmoqlar bo'yicha taqsimlaganda shuni hisobga olish kerakki, chakana savdo ustamasining katta qismi iste'mol tovarlarini sotib olishda uy xo'jaliklarining xarajatlarida amalga oshiriladi. Tovarlarni va xizmatlarni ishlab chiqaruvchi iqtisodiy subyektlar ulgurji savdo xizmatidan foydalanadilar, avtomobil va motosikllarning ulgurji va chakana savdosi xizmatlari avtotransport vositalari tovarlari guruhiga kiradi. Chakana savdoni amalga oshirishda eksport ko'zda tutilmaydi. Savdo ustamasi uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi davlat boshqaruvi organlari va notijorat tashkilotlarining yakuniy iste'moliga tegishli emas.

12. Savdo ustamalari matritsasi har bir savdo turi bo'yicha ustamalar matritsalarining yig'indisi sifatida shakllantiriladi.

2-§. Transport ustamalari matritsasi

13. Transport ustamalarining matritsasi har bir elementi foydalanilgan mahsulotlar tarkibida transport xizmatlari qiymatini ko'rsatuvchi jadvalni o'zida aks ettiradi.

14. Transport ustamalariga faqat shunday yuk tashish xarajatlari kiradiki, ya'ni ularni mol yetkazib beruvchilar sotib oluvchilar uchun alohida hisobda ko'rsatadilar va sotuvchilar uchunchi tomonga to'lab beradilar. Tovarlarni yetkazish sotib oluvchilarning o'z mablag'lari hisobidan amalga oshirilgan

hollarda ushbu xarajatlar transport ustamolari sifatida emas, balki tannarxda transport xarajatlari sifatida hisobga olinadi.

15. Transport ustamolari matritsalarini tuzish har bir transport turi (temir yo‘l, avtomobil, havo va quvur yo‘llari) bo‘yicha ustamalar matritsalarini tuzish orqali amalga oshiriladi.

16. Transport ustamolari matritsasi har bir transport turi bo‘yicha ustamalar matritsalarining yig‘indisi sifatida shakllantiriladi.

3-§. Mahsulotlarga sof soliqlar matritsasi

17. Mahsulotlarga sof soliqlar matritsasi mahsulotlarga soliqlar va mahsulotlarga subsidiyalar matritsalaridan shakllanadi.

18. Mahsulotlarga soliqlar matritsasi har bir elementida oraliq yoki yakuniy iste‘molda foydalanilgan resurslar tarkibidagi soliqni ko‘rsatuvchi jadvalni o‘zida aks ettiradi.

19. Mahsulotlarga subsidiyalar matritsasi Davlat budjetining ijrosi to‘g‘risidagi hisobot asosida shakllantiriladi va subsidiyalarning maqsadi bo‘yicha taqsimlanadi.

Sof soliqlar matritsasini tuzishda shuni hisobga olish kerakki, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq eksportga yo‘naltirilgan tovarlar soliqqa tortilmaydi. Shuning uchun mahsulotlarga sof soliqlar eksport mahsulotlariga taqsimlanmaydi. Mahsulotlarga soliqlar, shuningdek, uy xo‘jaliklariga xizmat ko‘rsatuvchi davlat boshqaruvi organlari va notijorat tashkilotlarning yakuniy iste‘moliga ham tegishli emas.

20. Ishlatilish jadvaliga sof soliqlar matritsasi ustunlarining umumiy qiymatlaridan iborat qator ma‘lumotlari kiritiladigan mahsulotlarga sof soliqlar qo‘shimcha qatori kiritiladi.

4-§. Import tovarlar va xizmatlar ishlatilishi matritsasi

21. Import tovarlar va xizmatlar ishlatilishi matritsasi har bir elementi oraliq yoki yakuniy iste‘molda foydalanilgan import tovarlar va xizmatlar qiymatini ko‘rsatuvchi jadvalni o‘zida aks ettiradi.

22. Ushbu matritsani tuzishda tovarlar va xizmatlar importi hamda importyorlar haqidagi axborotlarni o‘z ichiga olgan Bojxona qo‘mitasi va statistika kuzatuvlari ma‘lumotlaridan foydalaniladi.

23. Import qilinadigan tovarlardan foydalanish imkoniyatlari, shuningdek, mutanosiblik tamoyilidan foydalanish to‘g‘risidagi taxminlarga asoslangan holda, import qilingan resurslarni tarmoqlar bo‘yicha oraliq talablar va yakuniy foydalanish yo‘nalishlariga ko‘ra taqsimlash amalga oshiriladi.

Masalan, iste‘mol tovarlari asosan chakana savdo uchun mo‘ljallangan. Buning sababi shundaki, ularning asosiy qismi uy xo‘jaliklarining yakuniy iste‘mol qiymatiga kiritilgan hamda ma‘lum bir qismi esa ulgurji va chakana savdo zaxiralarida bo‘lishi mumkin. Shundan kelib chiqqan holda, import qilinadigan iste‘mol tovarlari qiymati ushbu foydalanish yo‘nalishlariga

mutanosib ravishda taqsimlanadi. Import qilingan mashina va uskunalar asosiy fondlar hisoblanib, asosiy kapitalning jamg'arilishida aks ettiriladi.

24. Oraliq va yakuniy foydalanish yo'nalishlari bo'yicha import xizmatlarini taqsimlash statistik kuzatuvlar ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi.

5-§. Mahalliy tovarlar va xizmatlarning ishlatilishi matritsasi

25. Mahalliy tovarlar va xizmatlarning ishlatilishi matritsasi hisoblab chiqish yo'li bilan tuziladi. Asosiy narxlardagi tovarlar va xizmatlarning ishlatilishi matritsasidan asosiy narxlardagi import qilingan tovarlar va xizmatlarning ishlatilishi matritsasi chegirib tashlanadi. Agar ba'zi ko'rsatkichlarda manfiy sonlar hosil bo'lgan bo'lsa, ushbu manfiy sonlarni bartaraf etish uchun tizim matritsasiga tuzatishlar kiritiladi.

3-bob. “Xarajatlar – ishlab chiqarish” simmetrik jadvalini matematik usullar bilan hisoblash tartibi

26. “Xarajatlar – ishlab chiqarish” jadvali birinchi va uchinchi kvadrant tarmoqlari mahsulotlari guruhiga almashtirilgan asosiy narxlardagi ishlatilish jadvallari asosida hisoblanadi. Natijada qatorlarida va ustunlarida mahsulotlar guruhi aks etgan mahsulot – mahsulot kvadrant matritsasi hosil bo'ladi va bir xil tasniflash ishlatiladi. “Xarajatlar – ishlab chiqarish” jadvali qatorlari va ustunlarining jami teng bo'ladi. Shuning uchun hosil bo'lgan matritsa simmetrik, deb qoraladi.

27. “Xarajatlar – ishlab chiqarish” jadvali tovarlar va xizmatlarning ishlatilishi jadvali kabi o'zining iqtisodiy mazmuniga ko'ra bir-biridan farq qiluvchi 3 qismdan (kvadrantlardan) iborat.

I kvadrant tovarlar va xizmatlar guruhini ishlab chiqarishda tovarlar va xizmatlar oraliq iste'molining tarkibini tavsiflaydi.

II kvadrant tovarlar guruhlari kesimida yakuniy talabning elementlari (yakuniy iste'mol, yalpi jamg'arish, eksport)ni tavsiflaydi.

III kvadrant yalpi qo'shilgan qiymatning qiymat tarkibi (mehnat haqi, yalpi foyda va yalpi aralash daromad, ishlab chiqarishga soliqlar va ishlab chiqarishga subsidiyalar)ni tavsiflaydi.

“Xarajatlar – ishlab chiqarish” jadvalining sxemasi 1-ilovada keltirilgan.

28. Resurslar jadvalining ustunlarida bir turdan ko'p mahsulot ishlab chiqaradigan sanoat tarmoqlaridan, ya'ni ikkilamchi mahsulotlar ham ishlab chiqaruvchi tashkilotlardan tashqari bir xil faoliyat turi bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar bo'yicha ma'lumotlar ko'rsatiladi. Ishlatilish jadvalida bu tarmoqlar bo'yicha oraliq iste'molga asosiy mahsulot ishlab chiqarishga ketgan xarajatlar bilan birga ikkilamchi mahsulotlarni ishlab chiqarishga ketgan xarajatlar ham kiradi. Resurslar va ishlatilish jadvallarini “Xarajatlar – ishlab chiqarish” jadvallariga aylantirish zarurati ikkilamchi mahsulotlar mavjudligi uchun yuzaga kelgan.

29. Mahsulot ishlab chiqarish texnologiyasi haqidagi farazga asoslangan usul shundan iboratki, bunda har bir tarmoqda bir xil ishlab chiqarish texnologiyasi, bir xildagi mahsulotni ishlab chiqarishda bir xil xarajatlar tarkibidan foydalaniladi. Boshqacha aytganda har bir mahsulot o'zining asl standart xarajatlar tarkibiga ega. Ikkilamchi faoliyat turi mahsulotini resurslar jadvalidagi tegishli faoliyatga o'tkazishda ushbu mahsulotni ishlab chiqarish uchun sarflanadigan xarajatlar mazkur faoliyatning ishlatilish jadvali o'tkaziladigan tarmoq tuzilmasiga muvofiq ko'chiriladi. Barcha ikkilamchi mahsulotlar uchun shunday amallar bajarilgandan so'ng, tarmoqlardagi oraliq xarajatlar emas, balki ustundagi mahsulotlar guruhini ishlab chiqarish uchun ketgan oraliq xarajatlar aks ettiriladi.

30. "Xarajatlar – ishlab chiqarish" jadvalini tuzish uchun asosiy narxlardagi tovarlar va xizmatlar ishlatilish jadvalini (U) o'zgartirish kerak:

a) jadvalni simmetrik holga keltirish (agarda u simmetrik bo'lmasa) va oraliq yig'indilarni chiqarib tashlash kerak (bunda satr va ustunlar soni albatta mos kelishi lozim);

b) iste'mol qilingan savdo ustamasini "Savdo xizmatlari" satriga, iste'mol qilingan transport ustamasini esa "Transport xizmatlari" satriga qo'shish kerak;

d) iste'mol qilingan mahsulotlarga sof soliqlarni shartli ravishda qo'shilgan qiymatga o'tkazish.

Bu o'zgartirishlarni kiritgandan so'ng, tovarlar va xizmatlarning ishlatilishi jadvali simmetrik jadval ko'rinishiga keladi.

31. Tovarlarni va xizmatlarning ishlatilishi hamda tovarlar va xizmatlar resurslari jadvallarining satrlari va ustunlari soni bir-biriga mos kelishi lozim. Sonli miqdorlar mavjud bo'lmagan kataklarda "0" ko'rsatiladi.

32. Keyingi bosqichda tovarlar va xizmatlar resurslari jadvali bo'yicha har bir turdagi mahsulot ishlab chiqarishning tarmoq tarkibi hisoblab chiqiladi, ya'ni tarmoqlardagi mahsulotlar ishlab chiqarish tarkib ulushi matritsasi (V) hosil qilinadi, keyin esa V^{-1} teskari matritsasiga aylantiriladi.

33. "Xarajatlar – ishlab chiqarish" simmetrik jadvalini hisoblash quyidagi formula bo'yicha matritsalarini bir-biriga ko'paytirib topiladi:

$$X = U * V^{-1},$$

bu yerda, X – "Xarajatlar – ishlab chiqarish" simmetrik jadvali;

U – tovarlar va xizmatlar ishlatilishi simmetrik jadvali;

V^{-1} – resurslarning teskari matritsasi.

34. Shunday qilib, birinchi kvadrant va qo'shilgan qiymatning ayrim tarkibiy qismlari, jumladan, yollanma ishchilarga to'langan mehnat haqi, ishlab chiqarishga boshqa soliqlar va mahsulotlarga sof soliqlar (ya'ni, hisoblab bo'lgandan so'ng, birinchi kvadrantga qaytariladi) hisoblanadi. Yalpi foyda saldo usuli bilan hisoblanadi.

Hosil qilingan jadvalda manfiy ko'rsatkichlar mavjud bo'lgan hollarda hisob-kitoblarga tuzatishlar kiritiladi.

35. Ishlatilish jadvalidagi yakuniy talabning kvadranti o'zgarishsiz qoladi. Bu kvadrant mahsulotlar guruhi bo'yicha talabni aks ettiradi va uni o'zgartirish zarurati mavjud emas.

4-bob. Bevosita va to'liq xarajatlar koeffitsiyentlarini hisoblash

36. "Xarajatlar – ishlab chiqarish" jadvali bevosita va to'liq xarajatlar koeffitsiyentlarini hisoblash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Bevosita xarajatlar koeffitsiyenti bir birlik ishlab chiqariladigan mahsulotning ishlab chiqarilishi uchun kerakli turli xarajatlarning holati va hajmini ifodalaydi, lekin bilvosita xarajatlarni aks ettirmaydi. Bir mahsulotni ishlab chiqarish o'zidan keyin ishlab chiqarish jarayonida o'zaro bog'liq bo'lgan zanjirni hosil qiladi, bunda xarajat sifatida ishlatilayotgan har bir mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lishi va o'z navbatida turli xarajatlarni talab qiladi. Zarur bo'lgan xarajatlarning bir sikli boshqa siklni, unisi esa o'z navbatida yana boshqasini talab qiladi. Tahliliy maqsadlar uchun to'liq xarajatlar koeffitsiyenti alohida ahamiyatga ega bo'lib, nafaqat bevosita xarajatlarni, balki bilvosita xarajatlarni ham hisobga olishni ta'minlaydi.

37. Bevosita xarajatlar koeffitsiyenti a_{ij} har bir xarajatlar elementi x_{ij} ni barcha ishlab chiqarilgan mahsulotlar X_j ga bo'lish orqali topiladi. Ular ishlab chiqarilayotgan 1000 so'mlik mahsulotga ketadigan turli xarajatlarning holati va hajmini ifodalaydi, lekin bilvosita xarajatlarni o'z ichiga olmaydi.

$$a_{ij} = \frac{x_{ij}}{X_j}$$

38. To'liq xarajatlar koeffitsiyenti teskari matritsani hisoblash yo'li bilan topiladi (Leontev inversiyasi):

$$(I-A)^{-1},$$

bu yerda, I – birlik matritsa, unda barcha diagonal bo'yicha joylashgan elementlar 1 ga teng, qolgan barcha elementlar 0 ga teng bo'ladi;

A – bevosita xarajatlar koeffitsiyenti matritsasi.

Ushbu hisob-kitoblarni amalga oshirishda, diagonal element oshadi va >1 qiymatni tashkil qiladi, bundan kelib chiqadiki, $(I-A)^{-1}$ formulasi to'liq emas, deb hisoblanadi.

To'liq xarajatlarning to'g'ri miqdorlarini hosil qilish uchun teskari va birlik matritsalarini hisoblash amalga oshiriladi.

$$(I-A)^{-1} - I$$

Shu tarzda hosil qilingan miqdorlar to'liq xarajatlar koeffitsiyentlariga mos keladi.

39. Yakunlovchi bosqichda to'liq xarajatlar koeffitsiyenti 1000 so'mlik mahsulotga nisbatan hisoblanadi, ya'ni koeffitsiyent miqdorlari 1000 ga ko'paytiriladi.

5-bob. Yakuniy qoidalar

40. Boshlang'ich statistik ma'lumotlardan chetga chiqish natijasida "Xarajatlar – ishlab chiqarish" jadvali kuzatilgan hodisalarning umumlashgan ma'lumotlari bo'lmaydi, balki tahliliy tuzilma bo'ladi.

41. Berilgan jadval asosida tovarlar guruhlar bo'yicha narxlarning shakllanish tarkibi, u yoki bu mahsulotning ishlab chiqarilishi uchun qanday hajmdagi kapital va import talab etilishi tahlil qilinadi, shuningdek, qaralayotgan faoliyat turiga ta'sir etadigan boshqa faoliyat turlarini va ushbu faoliyat turining boshqa faoliyat turlariga ta'sirini aniqlash bo'yicha prognoz hisob-kitoblari amalga oshiriladi.

42. Rasmiy statistika ma'lumotlarini taqdim etish va tarqatishga tayyorlash uchun statistik tahlil usullari va qoidalarini amalda qo'llash maqsadida GSBPM milliy modelining ma'lumotlarni tahlil qilish bosqichi doirasida dastlabki statistik materiallarni tayyorlash, statistik materiallarga izohlar va tushuntirishlar tayyorlash hamda rasmiy statistika ma'lumotlarini shakllantirishni yakunlash kabi jarayonlardan foydalaniladi.

42. Mazkur uslubiy hujjatni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish bosqichlari "Statistik ma'lumotlarni taqdim etishning universal modeli" (GSIM – Generic Statistical Information Model) talablari asosida ishlab chiqilgan "Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini ishlab chiqish va tasdiqlash bo'yicha namunaviy uslubiy qo'llanma"ga muvofiq amalga oshirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Система национальных счетов – 2008, Организация Объединенных Наций, Европейская комиссия, Организация экономического сотрудничества и развития, Международный валютный фонд и Всемирный банк, 2009.
2. Руководство по составлению таблиц затрат-выпуска и их анализу, ООН, 2000.
3. Eurostat Manual of Supply, Use and Input-Output Tables, 2008.
4. Handbook on Supply, Use and Input-Output Tables with Extensions and Applications, UN, 2018.

“Xarajatlar – ishlab chiqarish” jadvalini tuzish
bo‘yicha uslubiy nizomga
1-ilova

“Xarajatlar – ishlab chiqarish” jadvalining sxemasi

Tovarlar va xizmatlarning nomi	Oraliq iste'mol			Yakuniy iste'mol	Yalpi jamg'arish	Eksport	Import (-)	Jami ishlatilgan resurslar (asosiy narxlarda)
	Mahsulot “1”	Mahsulot “2”	Mahsulot “n”					
Mahsulot “1” Mahsulot “2” Mahsulot “n” Mahsulotlarga sof soliqlar	I kvadrant			II kvadrant				X
Qo‘shilgan qiymatning tarkibiy qismlari	III kvadrant							
Ishlab chiqarish (asosiy narxlarda)	X							